



ZILZILAGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA HARAKAT QILISH

Chintashev Odil Xudayberdiyevich

Fuqaro muhofazasi instituti Katta o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2023 yil 6 fevral kuni tongida Turkiyaning janubi-sharqida bo'lib o'tgan kuchli zilzilalarning oqibatlari qisqacha tahlil qilingan va ulardan misollar keltirilgan. Shuningdek, ushbu maqolada zilzilaga qanday tayyorgarlik ko'rish, zilzila payti va undan keyin nimalar qilish kerakligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: zilzilala, seysmik, tayyorgarlik, falokat, omon qolish, jarohat, jismlar, binolar, aloqa, yordam, qutqaruvchi.

Dunyoda so'nggi yillarda sodir bo'lgan kuchli zilzilalarning ayanchli oqibatlari shuni ko'rsatdiki, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zilzilalarni uzoq, o'rta va qisqa muddatli bashorat qilish, antiseysmik bino va inshootlar qurish bilangina cheklanib qolmasdan, balki seysmik xavfli hududda istiqomat qiladigan aholining zilzilaga tayyorgarligini bosqichma - bosqich oshirib borish, tezkor harakat qilish ko'nikmalarini hosil qilish, zilzila oqibatlarini maksimal darajada kamaytirish imkonini beradi.

2023 yil 6 fevral kuni tongida Turkiya janubi-sharqida kuchli zilzila sodir bo'ldi, yuz bergan zilzila oqibatida minglab insonlar halok bo'ldi

BMT ma'lumotlariga ko'ra, bu Turkiyada 1939 yildan beri yuz bergan eng kuchli zilziladir.

Ushbu hodisa dunyoning boshqa nuqtalarida ham zilzila va u sodir bo'layotganida qanday harakat qilish lozimligi haqidagi ma'lumotlarga bo'lgan qiziqishni oshirdi.

Ushbu maqola - aynan zilzilaga qanday tayyorgarlik ko'rish, jarohat yoki o'lim xavfini kamaytirish uchun qanday harakatlarni qo'llash, zilzila payti va undan keyin nimalar qilish kerakligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Uyingizni zilzila xavfiga tayyorlang. Zilzila paytida har qanday, hatto eng og'ir jism ham harakatlanishi va qulashi mumkin. Shuning uchun mebel va maishiy texnika karavotlar, divanlar va kimdir uxlashi mumkin bo'lgan o'rinlardan uzoqroqqa ko'chirilishi kerak. Shuningdek, mebellar, televizorlar, kompyuterlar, suv isitgichlari, shkaflar va javonlar mahkam o'rnatilishi kerak.

Bu juda muhim, chunki, masalan, 1994 yilda Nordrijdagi zilzila jabrlanuvchilarining 55 foizi yaxshi qotirilmagan buyumlarning ag'darilishi oqibatida, hatto, o'ldiradigan jarohatlar olgan (jarohatlarning faqat 1 foizi binolarning buzilishi va qulashi bilan bog'liq edi). Bu chora, shuningdek, kuchsiz silkinishlar vaqti mol-mulkingizga yetishi mumkin bo'lgan zararning ham oldini olish mumkin.

Oilangizning har bir a'zosi uchun falokat paytida omon qolish rejasini tuzing va kerakli narsalarni to'plab qo'ying. Oilangizning har bir a'zosi bilan aniq harakatlar ketma-ketligini kelishib oling va ularni muntazam ravishda mashq qilib turing.

Agar uy hayvoningiz bo'lsa, ularni tashish uchun moslama va ozgina ovqat tayyorlang. Karavot yoniga ichida fonari bor xaltacha osib qo'yish mumkin - bu binoda chiroqlar



o'chgan taqdirda harakatlanishingizga yordam beradi. Pasportlar va boshqa muhim hujjatlarni dori-darmonlar uchun retseptlar, oz miqdorda naqd pul, shaxsiy gigiyena vositalari va zarur dori-darmonlar bilan birga xavfsiz suv o'tkazmaydigan idishda saqlash mumkin.

Shuningdek, ushbu «xavf jamadoni»ga hushtakni qo'shishingiz mumkin -mabodo vayronalar ostida qolsangiz, hushtak yordamida qutqaruvchilarga signal berish mumkin. Agar bunday joyga hushtaksiz tushib qolsangiz, ketma-ket uchta qisqa taqillatish bilan signal berish tavsiya etiladi.

Agar silkinish boshlansa, o'zingiz turgan joyda qoling. Nima qilib bo'lsa-da binodan chiqib ketishga harakat qilishning keragi yo'q. Vayron bo'lgan uylarning qo'rqinchli tasvirlariga qaramay, zilzila payti asosiy xavf qulayotgan va uchayotgan buyumlardan bo'ladi, sizning asosiy vazifangiz ulardan himoyalangan joyga o'tishdir. Binoni tark etishga faqat bunga bir necha soniya ketishiga amin bo'lsangiz va kuchli zilzilalar hali boshlanmagan bo'lsagina urinib ko'rish mumkin.

Qayerda bo'lsangiz ham jarohatlar yoki o'lim xavfini kamaytirish uchun eng samarali - «Egil. Yopiq joyga o't. Joyingda qol» harakatini qo'llang.

Qo'llaringiz va tizzangiz bilan turgan joyingizga egiling. Bu holat hayotiy muhim organlarni uchuvchi jismlardan himoya qiladi va silkinish paytida muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Agar yaqin atrofda mustahkam stol bo'lsa, uning ostiga kiring.

Agar yashirinish joyi bo'lmasa, ichki devorlardan biriga yaqinlashishga harakat qiling (ular bino ichidagi xonalar orasidagi chegara bo'lib xizmat qiladi).

Bir qo'lingiz bilan boshingizni va bo'yingizni yoping - kaftingizni bo'yingizga, tirsagingizni esa boshingiz orqasiga qo'yishingiz kerak. Boshqa qo'l bilan sizni yashirib turgan joyni (masalan, stolni) ushlab turish kerak. Yashirinish joyi bo'lmasa, boshingizni va bo'yingizni ikkala qo'lingiz bilan yoping. Ushbu holatni silkinish oxirigacha saqlang.

Agar biron sababga ko'ra siz polga egilolmasangiz, stul yo karavotga o'tiring va xuddi shunday tarzda boshingizni qo'llaringiz bilan yoping. Agar siz nogironlar aravachasidan foydalansangiz, uning g'ildiraklarini tormoz holatiga o'tkazib qo'yganingizga ishonch hosil qiling.

Iloji boricha, qulab, sizni shikastlashi mumkin bo'lgan shisha va beqaror predmetlardan uzoqroq turing. Boshingizni va yuzingizni parchalanishdan himoya qiladigan biron bir narsani olishga harakat qiling - masalan, kitob. Tiz cho'kish holatida uni bo'yin ustida yoki boshdan yuqorida ushlab turish mumkin.

Agar siz yotoqda bo'lsangiz, boshingizni yostiq bilan o'ragan holda qolishingiz tavsiya etiladi.

Agar siz qulagan jismlar ostida qolgan bo'lsangiz, xotirjamlikni saqlang va uni o'zingiz olib tashlashga urinmang - bu vayronalarning boshqa qismi qulashiga olib kelishi mumkin. Burun, og'iz va ko'zlaringizni changdan himoya qilishga harakat qiling. Agar bo'lsa, qutqaruvchilarga fonar yoqib yoki hushtak chalib signal berib ko'ring, bo'lmasa uchta qisqa taqillatish bilan ishora bering.



Agar tashqarida bo'lsangiz, binolar, elektr uzatish liniyalari, yo'l belgilari va avtomobillardan saqlaning. Eshiklar o'rnolari va devorlar oldi eng xavfli joylardir - bu yerda sizning ustingizga bino qismlari qulashi ehtimoli katta. Bundan tashqari, derazalar va kichik me'moriy detallar ko'pincha birinchi bo'lib buziladi va shikast yetkazishi mumkin.

Xavfsiz joyda ekanligingizga ishonchingiz komil bo'lganda - yuqorida tavsiflangan «Egil. Yopiq joyga o't. Joyingda qol» harakatini qo'llang.

Telefondan tarmoqni ortiqcha band qilmaslik hamda zarar ko'rgan boshqa odamlarni aloqa imkoniyatidan mahrum qilmaslik uchun faqat shoshilinch xizmatlarni chaqirish uchungina foydalaning. Imkoniyatingiz bo'lsa, muhtojlarga yordam bering.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2021 yil 14 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» gi 2022 yil 8 iyul kunidagi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 144-sonli Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 iyuldagi "Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 208 - sonli Qarori

5. Тинибеков М.Х. "Проблемы безопасности населения при чрезвычайных ситуациях". Учебник. Ташкент: Изд-во ИГЗ, 2020. Стр. 63-72.

6. file:///C:/User/Desktop/матер.html

Tel: 71. 230-40-27 93.532-52-92